

**MEHRLI MAKTAB GOSPITAL TA'LIMIDA ONA TILI VA  
ADABIYOT FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING NUTQIY  
KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YORDAM BERUVCHI  
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

*Olimova Xulkaroy Jamoldinovna*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Mehrli maktab gospital ta'limalda ona tili va adabiyot fanini o'qitishda o'quvchilarning nutqiy ko'nikmasini rivojlanirishga yordam beruvchi interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha namunalar keltirib o'tilgan. Metodik tavsiyadan joy olgan har bir metodning maqsadi, gospital ta'limalda ona tili va adabiyot darsida qo'llash va undan kutilayotgan natijalar yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Ta'lif, tarbiya, gospital ta'lif, nutqiy ko'nikmalar, tinglab tushunish ko'nikmasi, o'qib tushunish ko'nikmasi, kreativlik.*

*O'qituvchining eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta bilim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdir.*

*Shavkat Mirziyoyev*

Yurtimizda bugungi kunda ko'p sohalar qatori ta'lif sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlarning katta qismini esa ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etadi. Keng ko'lamli islohotlarning yana biri 2022-yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun mакtabgacha ta'lif va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lif berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroridir.

Ushbu qarorga muvofiq bugun yurtimizda "Mehrli maktab" davlat ta'lif muassasasi tashkil etilib, o'z faoliyatini olib bormoqda. Tashkil etilganiga ikki yildan oshiq vaqt bo'lgan Mehrli maktabning Toshkent shahrida va viloyatlarda ham o'z filiallari mavjud bo'lib, bular:

“Mehrli maktab” Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali , “Mehrli maktab” Andijon viloyati filiali, “Mehrli maktab” Farg‘ona viloyati filiali, “Mehrli maktab” Samarqand viloyati filiali, “Mehrli maktab” Namangan viloyati filiali, “Mehrli maktab” Buxoro viloyati filiali, “Mehrli maktab” Toshkent shahri ambulator filiali. Hozirda ushbu ta’lim muassasalarida quyidagi maktabgacha guruhlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

\_\_\_\_\_ ilk rivojlanish yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yin guruhlari\_\_\_\_1.5 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun uzoq muddat davolanish muassasalarida tashkil etilgan guruhlar.

\_\_\_\_\_ maktabgacha ta’lim gospital guruhlari---uzoq muddat davolanayotgan, sog‘ligi tufayli maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bora olmaydigan 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun davolash muassasalarida tashkil etilgan guruhlar:

Shuningdek, markazda davolanayotganlar uchun alohida ishlab chiqilgan o‘quv reja asosida 1-11-sinflar uchun umumiyo‘rta ta’lim beriladi. Dars mashg‘ulotlarining davomiyligi boshlang‘ich ta’lim (maktab) ning 1-4-sinflarida 30 daqiqa, 5-11-sinflarda 35 daqiqani tashkil etadi. Bunda bir kunlik dars mashg‘ulotlari 1-4-sinflarda 3 soatdan, 5-11- sinflarda 4 soatdan bo‘lib, o‘quv haftasi davomiyligi esa 5 kunlik asosida olib boriladi. Muassasada yana yakka (individual) dars mashg‘ulotlari ham tashkil etilgan. Bunda pedagog xodim shifokor xulosasiga ko‘ra o‘quvchining darsga chiqishiga ruxsat berilmagan holatda uning xonasiga borib dars tashkil qilishi lozim. Gibrid usulda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish esa yoshi va sinfi bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilarni bir vaqtida dars mashg‘ulotlariga jalb qilishdir. Bunda o‘quvchilar va pedagog xodim tibbiy-gigiyenik qoidalarga (barcha o‘quv jihozlari dizinfeksiya qilinishi, hamma o‘quvchilar va o‘qituvchida tibbiy niqob bo‘lishi, antiseptikdan tez-tez foydalanish va h.z) to‘liq amal etilgan holda dars jarayoni tashkil etiladi.

“Mehrli maktab” da faoliyat olib borayotgan pedagoglar markazda davolanayotgan o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘zi

o‘qitayotgan fanini o‘quvchiga tushunarli hamda mazmunli tarzda yetkazib berishi lozim. Bu esa o‘qituvchidan har doim izlanishda bo‘lishni va mahoratni talab etadi. Eng muhim jihat esa muassasada ta’lim berayotgan pedagogning davolanishda bo‘lgan bolalarga shirin so‘zli bo‘lishi, ularga ruhan dalda berish orqali ularning hayotga, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishdir.

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi “Zamin” fondi tomonidan Maktabgacha va maktab ta’limi, sog‘liqni saqlash vazirliklari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan gospital pedagogika sohasidagi katta loyihaning natijasi hisoblanadi. Shifoxonada uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Har bir xona zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan. Bularning barchasi yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijasidir.

Ona tili va adabiyot ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o‘zgalar fikrini tinglashi, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olishi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma bayon eta olish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir milliy til o‘zida moddiy olamni aynan aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg‘u-alamlar, shodliklarini ham o‘rnida ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o‘z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqadi.

Gospital ta’limda dars jarayonida o‘qituvchi psixolog bo‘lmog‘i lozim. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan o‘qituvchi haqiqiy pedagog bo‘la oladi. Har bir darslarda psixologik hamda innovatsion metodlarga vaqt ajratish darsning qiziqarli bo‘lishiga, o‘quvchining e’tiborini torta olishiga, mavzuni yaxshi tushunishiga, ona tiliga bo‘lgan muhabbatini oshirishga juda katta yordam beradi. Hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Fanga oid metodlarni darsda qo‘llagan vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi va bilimini namoyish etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo‘ladi. Munozaraga kirisha oladi, fikrini asoslashga o‘rganadi. Gospital ta’limning ona tili va adabiyot

darslarini qiziqarli tashkil etish, ularning nutqiy ko‘nikmalarini shaklantirish uchun turli interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Quyida ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

**“Burchaklar” metodi**-bu metod ona tili va adabiyot darslarida o‘qib tushunishga oid nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu metoddan foydalanish uchun 4 ta A4 formatdagi qog‘ozga 4 xil mavzu yozish lozim. Masalan, 7-sinf adabiyot fanida Zulfiya, Ernest Seton Tompson, Muhammad Ali, Normurod Norqobilov hayoti va ijodi o‘tilgan va o‘quvchilarda bu mavzularda ma’lumotlar mavjud. Mana shu ijodkorlarning ismini A4 formatdagi qog‘ozga yoziladi. Oldindan har bir mavzu bo‘yicha 10 tadan ma’lumotlarni yozib tayyorlab qo‘yish lozim. Navbatma navbat o‘quvchilar kelib kartochkalardan birini oladi. Kartochkada ma’lumotni o‘qigan o‘quvchi tegishli burchakka borib turishi lozim bo‘ladi. “Burchaklar” metodidan kutilayotgan natijalar: o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasi shakllantiriladi, og‘zaki nutqni rivojlantiradi, ilmiy bilish qobiliyatini oshiradi, to‘g‘ri tanlov qilish va o‘zini baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.

**“Mnemonika” metodi**-bu metod ona tili va adabiyot darslarida diqqatni jamlash, fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Mnemonika (qadimgi yunoncha Mnemosyne-eslab qolish san’ati)-rasmlar va belgilar yordamida esda olib qolishni osonlashtiradi. Metoddan foydalanish uchun ma’lum mavzuga oid 4,5 ta rasm ko‘rsatiladi. Masalan, adabiyot fanida asar mazmuniga mos bo‘lgan rasmlar orqali qaysi asar ekanligi so‘raladi. Bunda o‘quvchi so‘ralgan asarni tez topa oladi va uni ko‘proq esda saqlab qolishi ta’milnadi.

**“Mahsus rasm” metodi**-ushbu metoddan yangi mavzu bayoniga kirish qilib olish uchun foydalanamiz. Masalan, fe’l so‘z turkumi mavzusi o‘tiladigan bo‘lsa, kirish qismida “mahsus rasm” metodi bilan boshlash mumkin. Mavzuga mos turli rasmlar o‘quvchiga ko‘rsatiladi va ulardan rasmdagi ifodalangan ma’no so‘raladi. Rasmdagi harakatlar ; yuryapti, qo‘sish aytyapti, kitob o‘qiyapti, rasm chizyapti,. Bu harakat va holatlardan o‘quvchilar qaysi mavzu ekanligini tezroq

tushunib yetadilar hamda darsga diqqatlarini ko‘proq qaratadilar. Kutilgan natija o‘quvchilarda ko‘rib tushunish ko‘nikmasi, kreativ fikrlash qobiliyatini hamda mavzuga kirish qismini amalga oshirib olishimiz mumkin bo‘ladi.

**“Ilmga parvoz” metodi**-bu metoddan biz butun boshli dars jarayonida foydalansak bo‘ladi. Bunda biz turli shakldagi kartochkalarga savollar, tarqatmalar tayyorlab olamiz. O‘quvchilar ana shu savollarga javob berish orqali “Bilimlar orolchasi” ga qadamba qadam yetib boradilar. Kutilayotgan natija esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlari oshadi, ilmiy bilish qobiliyati shakllanadi.

**“Ha-yo‘q” metodi**- bu o‘yin metodini xohlagan fanda qo‘llash mumkin. Bunda mavzuga oid ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan aytildi. O‘quvchilar esa faktlarni ha yoki yo‘q so‘zlarini ishlatmasdan aytishlari kerak bo‘ladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning ilmiy bilish savodxonligi oshadi, diqqatni jamlash ko‘nikmasi shakllanadi va mavzuni ko‘proq esda saqlab qolishadi.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘z fikrlarini erkin bayon eta olishiga, atrofdagilar fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtai nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

“Mehrli maktab” o‘z nomi bilan mehrga to‘la maskan. Mehr-muhabbat bilan ta’lim berish esa maktab tarbiyalanuvchilarini hamda ta’lim oluvchilari uchun katta ruhiy madaddir. Bu maktabda ta’lim oluvchilarning barchasi sog‘ligida kamchiligi bor bolalar. Shu murg‘ak qalblarning dardiga malham bo‘lish uchun doimo shirin so‘z bo‘lish muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev 29.04.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022-yildagi “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida

davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 234-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 27-iyuldaggi 191-sonli buyrug‘iga ko‘ra DTS talablari.
4. A.Raviyev, N.G‘ulomova “Ona tili va adabiyot” (kasb-hunar kollejlari uchun darslik) , “Sharq” nashriyoti 2013-yil.
5. “Umumta’lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-,2-,4-sonlar.